

**TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR BILAN INDIVIDUAL ISHLASHDA
PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**

*Quljonov Shavkat Shomurodovich
Baxmal tumanidagi 33-umumiy o'rta
ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog*

ANNOTATSIYA

Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan individual ishlash zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri bo'lib, ushbu maqolada bunday o'quvchilarning xulq-atvori, psixologik xususiyatlari va ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish yo'llari tahlil etiladi. Pedagog va psixologlarning samarali yondashuvlari asosida individual ish olib borish metodlari, shaxsiy yondashuv va psixokorreksion usullar muhokama qilinadi.

O'quvchilarning intizom muammolari, motivatsiya yetishmovchiligi, oilaviy va ijtimoiy omillarning ta'siri chuqur o'rganilib, ularga mos reabilitatsion tadbirlar taklif etiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy-psixologik treninglar, motivatsion dasturlar va muloqot strategiyalari yordamida o'quvchilarning ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda samarali bo'lgan individual yondashuvlarning afzalliklari va muammolari aniqlanib, ularning ta'lim jarayonidagi adaptatsiyasini yaxshilash bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: tarbiyasi og'ir o'quvchilar, individual yondashuv, psixokorreksiya, motivatsiya, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy-psixologik trening, reabilitatsiya, intizom muammolari, muloqot strategiyalari, ta'lim jarayoni

Og`ishgan xulq turlarining psixologik tasnifi

Psixologik yondoshuv shaxsning og`ishgan xulqidagi alohida ko`rinishlarni ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan. Psixologik tasniflar quyidagi mezonlar asosida quriladi:

- buzilgan me'yor turi;
- axloq va uning motivatsiyada psixologik maqsad;
- ushbu axloq oqibati va u keltirgan zarar;
- axloqning shaxsiy-uslubiy tavsifnomasi.

Psixologik yondoshuv doirasida og`ishgan xulqning turli tipologiyasidan foydalilanadi. Ko`pchilik mualliflar, masalan, Yu.A. Kleyberg axloqiy deviatsiyaning uchta asosiy guruhini ajratadi: salbiy (masalan, giyohvand moddalar istye'mol qilish), ijobiy (masalan, ijtimoiy ijodkorlik) va ijtimoiy-xolis (masalan, tilanchilik).

Shaxs og`ishgan xulqining ko`rinishlarini tizimlashtirishning birmuncha to`liq va qiziqarli variantlaridan biri bizning nazarimizda S.P. Korolyenko va T. A. Donskix

[6] ga tegishli. Mualliflar barcha axloqiy deviatsiyani ikkita katta guruhga bo`ladilar: nostandard va destruktiv axloq. Nostandard axloq tafakkurning yangi shakli, yangi g`oyalar, shuningdek, axloqning ijtimoiy stereotiplari doirasidan chiquvchi harakatlarga ega bo`lishi mumkin. Bunday shakl garchi aniq tarixiy sharoitlarda qabul qilingan me`yorlardan chetga chiqsa-da, biroq jamiyatning kelgusidagi rivojlanishida ijobiy rol o`ynovchi faollikni ko`zda tutadi. Nostandard axloqqa misol qilib, novatorlar, inqilobchilar, oppozitsionerlar, bilimning qaysidir sohasini ilk ochuvchilarni keltirish mumkin. Ushbu guruh qat'iy ma'noda og`ishgan xulq deb tan olinishi mumkin emas.

Destruktiv axloq tipologiyasi uning maqsadlariga muvofiq tiziladi. Bir holatda bu ijtimoiy me`yorlarni (qonuniy, ma'naviy-etik, madaniy) buzishga yo`naltirilgan tashqi destruktiv maqsadlar va munosib ravishda tashqi destruktiv axloq. Ikkinci holda – shaxsning o`zini dezintegratsiyaga yo`naltirilgan ichki destruktiv maqsadlar, uning regressi va munosib ravishda ichki destruktiv axloq.

Tashqi destruktiv axloq, o`z navbatida, addiktiv va antijitimoiyga bo`linadi. Addiktiv axloq reallikdan ketish va istalgan hissiyotni olish maqsadida maxsus faollik yoki qandaydir moddalardan foydalanishni ko`zda tutadi. Antijitimoiy axloq mavjud qonun va boshqa odamlar huquqlarini qonunga qarshi, asotsial, axloqsiz-beadab axloqlar shaklida buzuvchi harakatlardan iborat.

Ichki destruktiv axloq guruhida S.P.Korolyenko va T.A.Donskix quyidagilarni ajratadilar: suitsid, konformistik, nartsissik, fanatik va autik axloq. *Suitsid axloq* o`z-o`zini o`ldirishning yuqori xavfi bilan xarakterlanadi. *Konformistik* – individuallikka muhtoj, faqat tashqi avtoritetga yo`naltirilgan axloq. *Nartsissik* – shaxsiy buyukligi tuyg`usi bilan boshqariladi. *Fanatik* – qandaydir qoya, nuqtai nazarga ko`r-ko`rona berilgan shaklda yuzaga chiqadi. *Autistik* – odamlar va atrofdagi harakatlardan bevosita chegaralanganlik, shaxsiy fantaziyasi olamiga sho`ng`iganlikda ko`zga tashlanadi

Destruktiv axloqning barcha sanab o`tilgan shakllari, olimlar fikriga ko`ra, hayot sifatining yomonlashishi, o`z axloqiga tanqidni pasaytirish, kognitiv xatolar (sodir bo`lganlarni qabul qilish va tushunishda) o`z-o`zini baholash va hissiy buzilishlar kabi Deviant mezonlarga javob beradi. Nihoyat, ular katta ehtimol bilan shaxsning yakkalanib qolishigacha bo`lgan ijtimoiy moslashmasligiga olib keladi.

Psixologik adabiyotlarda shaxs og`ishgan xulqining ko`rinishlarini tasniflashda boshqa yondoshuvlarni ham uchratish mumkin.

Kelgusida biz axloqiy og`ishlarning og`ishgan xulqning salbiy oqibatlari va buzilgan me`yor ko`rinishlari kabi yetakchi mezonlarga asoslangan shaxsiy tasnifimizga suyanamiz.

Sanab o`tilgan mezonlarga muvofiq og`ishgan xulqning uchta asosiy guruhini ajratamiz: antijitimoiy (Delinkvent) axloq, asotsial (axloqsiz) axloq, autodestruktiv (o`z-o`zini parchalovchi) axloq.

Antijitimoiy (Delinkvent) axloq – bu qonun me'yorlariga qarshi chiquvchi, ijtimoiy tartib va atrofdagi odamlar farovonligiga xavf soluvchi axloq. U qonunchilik bilan taqilangan istalgan harakat yoki harakatsizlikni o'z ichiga oladi.

Katta odamlar (18 yoshdan kattalar) da Delinkvent axloq, ayniqsa, o'z ortidan jinoiy yoki fuqarolik javobgarligi va tegishli jazoni boshlab keluvchi qonunbuzarlik shaklida namoyon bo'ladi. O'smirlarda (13 yoshdan boshlab) Delinkvent axloqning quyidagi turlari ustunlik qiladi: bezorilik, mayda o'g'rilik, o'g'rilik, vandalizm, jismoniy zo'rlik, giyohvand moddalarni sotish. Bola yoshida (5 yoshdan 12 yoshgacha) o'zidan kichik yoshdagi bolalar va tengdoshlariga nisbatan zo'ravonlik, hayvonlarga shafqatsiz munosabat, o'g'rilik, mayda bezorilik, mulkni buzish, yondirish kabi shakllari birmuncha keng tarqalgan.

Asotsial axloq – bu shaxslararo munosabatlarning tinchligiga bevosita xavf soluvchi, axloqiy-ma'naviy me'yorlarni bajarishdan qochuvchi axloq. U tajovuzkor axloq, jinsiy deviatsiya (tartibsiz jinsiy aloqalar, fohishabozlik, yomon yo'lga kirish, vuayyerizm, eksgibitsionlik va boshqalar), pulga azart o'yinlarga tortilish, daydilik, boqimandalik sifatida namoyon bo'ladi.

O'smir yoshida uydan chiqib ketish, daydilik qilish, mакtabga bormaslik yoki ta'lim olishdan bosh tortish, tajovuzkor axloq, promiskuitet (tartibsiz jinsiy aloqa), graffiti (devorga uyatsiz xarakterdagi rasmlar chizish va yozuvlar yozish), submadaniy deviatsiyalar (sleng, shramlash, tatuirovkalar) birmuncha tarqalgan.

Bolalarda esa uydan qochib ketish, daydilik, mакtabga bormaslik, tajovuzkor axloq, g'iybat qilish, yolg'on, o'g'rilik, ta'magirlik (tilanchilik) kabi ko'rinishlarda uchraydi.

Asotsial axloqning chegaralari, ayniqsa, o'zgaruvchan, chunki u boshqa axloqiy deviatsiyalardan ko`ra madaniyat va vaqtning ta'siri ostidadir.

Autodestruktiv (o'z-o'zini parchalovchi axloq) – bu tibbiy va psixologik me'yorlardan og'ishgan, shaxsning rivojlanishi hamda umuman o'ziga xavf soluvchi axloq. O'z-o'zini parchalovchi axloq zamonaviy dunyoda quyidagi asosiy shakllarda yuzaga chiqadi: suitsidal axloq, ozuqaga muhtojlik, kimyoviy muddalarga muhtojlik (psixofaol muddalarni suiiste'mol qilish), fanatik axloq (masalan, destruktiv-diniy madaniyatga tortilish), autik axloq, viktim axloq (jabrlanuvchining axloqi), hayot uchun aniq ko'riniб xatarli faoliyat (sportning ekstremal turlari, avtomobilda yurganda tezlikni o'ta oshirish va boshqalar).

O'smir yoshda autodestruktiv axloqning xususiyati (avvalgi shakliga o'xshash) uning guruqli qadriyatlar bilan bilvosita bog'liqligi hisoblanadi. O'smir kiritilgan guruhi autodestruktsiyaning quyidagi shakllarini tug'diradi: giyohvandlikka mute bo`lib qolgan axloq, o'z-o'zini kesish, kompyuterga bog'lanib qolish, ozuqa addiktsiyalari, kamroq – suitsidal axloq.

Bolalik yoshida chekish va toksikomaniyaga o`rin bor, biroq umuman olganda ushbu yoshdagilar uchun autodestruktsiya davri kam xarakterlidir.

Biz shaxs og`ishgan xulqining turli ko`rinishlari ikkita – o`ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo`nalishli “destruktiv axloq”ning yagona o`qida joylashganini ko`ramiz.

Destruktiv ifodalanganlikning yo`nalishi va darajasi bo`yicha og`ishgan xulqning quyidagi shkala bo`yicha taqdim etish mumkin: antiijtimoiy (faol-destruktiv) – projitimoiy(antiijtimoiy guruhlar me`yoriga moslashgan, nisbatan destruktiv) – asotsial (passiv-destruktiv) – o`z-o`zini parchalovchi (passiv-autodestruktsiyasi) – o`z-o`zini o`ldiruvchi (faol-autodestruktsiyasi).

Og`ishgan xulqning alohida turlarini ajratish va ularni o`xshash belgilar bo`yicha tizimlashtirish garchi ilmiy tahlil maqsadida oqlangan bo`lsa-da, shartli hisoblanadi. Real hayotda alohida shakllar ko`pincha uyqunlashadi yoki kesishadi, og`ishgan xulqning alohida aniq hollari individual bo`yalgan va takrorlanmas bo`ladi.

Og`ishgan xulqning ba'zi turlari me`yorning so`nggi chegarasidan kasallikka o`tishi va tibiyotni o`rganish predmeti bo`lishini aytib o`tish mumkin. Xullas, masalan, tibbiy maqsadlarda giyohvand moddalarni epizodik iste'mol qilish suiiste'mol qilish shakliga (psixologik bog'liqlik) o`tishi va jismoniy bog'liqlik (giyohvandlik) belgilari bilan dardchil ishtyoq rivojlanishi mumkin. Tibbiy bo`limgan kasblar mutaxassislari o`z vakolatlari chegarasidan chiqmasliklari va shifokor ishtioksiz axloqning patologik shakli bilan shug`ullanmasliklari lozim.

Yuqorida ta'kidlab o`tilgandek, og`riqli, shu jumladan, axloqiy buzilish kasalliklar tasnifida sanab o`tilgan va yoritib berilgan. Shuning uchun kim og`ishgan xulq bilan professional tarzda shug`ullanayotgan bo`lsa eng kam darajada tibbiy me`yorlar bilan boshqariladigan axloqning turlari haqida umumiylashtirish ega bo`lishi kerak.

Axloqiy buzilishlarning tibbiy tasnifi psixopatologik va yosh mezonlariga asoslangan. Ularga muvofiq tibbiy tashhisiy mezonlarga munosib, ya'ni kasallik darajasiga yetgan axloqiy buzilishlar ajratiladi. Kasalliklar xalqaro tasnifining o`ninchisi qayta ko`rib chiqishdagi (MKB-10) “Psixik va axloqiy buzilishlar tasnifi” bo`limida quyidagilarni axloqiy buzilish (katta yoshdagilar uchun) deb aytadi:

F10–19 – psixik va axloqiy buzilish oqibatida psixofaol moddalarni (spirtli ichimliklar, opioidlar, kannabinoidlar, sedativ va uxlatuvchi moddalar, kokain, kofeinni kiritgan qolda qo`zg`atuvchilar, gallyutsinogenlar, tamaki, boshqa psixofaol moddalardan foydalanish yoki iste'mol qilish bilan uyg`unlashgan uchuvchi eritmalar) iste'mol qilish;

F50–59 – fiziologik buzilish va jismoniy omillar (ovqat qabul qilishning buzilishi; noorganik tabiatda uyquning buzilishi, organik buzilish yoki kasallik sabab bo`limgan jinsiy disfunktsiya, tug`ishdan keyingi davr bilan bog'liq bo`lgan psixik va

axloqiy buzilishlar, bog'liqlik chaqirmaydigan moddalarni suiiste'mol qilish, masalan, setroidlar, vitaminlar) bilan bog'liq bo'lgan axloqiy sindromlar;

F63 – odatlar va intilishlarning(azart o`yinlarga patologik moyillik; piromaniya – patologik kuyishlar; patologik o`g'rilik – kleptomaniya; soch yulish – trixotilomaniya; odatlar va intilishlarning boshqa buzilishlari) buzilishi;

F65 – jinsiy afzal ko`rish bo`lishi (fetishizm; fetishistik transvestizm; eksgibitsionizm; vuayyerizm; pedofillik; sadomazoxizm; jinsiy afzal ko`rish ko`plab buzilishlari). Aytib o`tish lozimki, ushbu taqrirda gomoseksualizm yo`q.

Ko`rsatilgan bo`limlar ushbu axloq tegishli bo`lishi mumkin bo`lgan kasallik buzilishlarga muvofiq belgilar va aniq tashhisiy mezonlardan iborat. Masalan, «Patologik o`g'rilik (kleptomaniya)» rubrikasi quyidagi tashhisiy belgilardan iborat: a) yoki shaxs yoki boshqa odam uchun ko`rinmas sabablersiz ikki yoki undan ortiq o`g'irlik hollari; b) individ o`g'irlikka kuchli intilish harakatni sodir etish oldidan zo`riqish tuyg'usi va undan keyingi yengillikni yoritib beradi . Og`ishgan xulq muammosi ilmiy bilimning turli soalarida tadqiqotchilarning o`ta qiziqishini uyqotadi. Ya.I.Gilinskiy ta'kidlaganidek “Deviant axloqqa bag'ishlangan minglab tomlar yozib bo`lindi, biroq hanuzgacha uning nimaligi butkul aniq emas.

Shaxsning Deviant axloqi haqidagi zamonaviy bilimlar biz o`zaro bog'liq omillar tizimida determinatsiyalangan shaxs ijtimoiy axloqining o`ta murakkab shakli bilan ish olib borayotganimizni tasdiqlashga imkon beradi. Afsuski, shaxs og`ishgan xulqining yagona nazariyasi hali yaratilganicha yo`q. Ayni damda ushbu masala bo`yicha kenggina ma'lumot turli ilmiy fanlarda jamlangan: tibbiyat, biologiya, psixologiya, sotsiologiya, huquq. Bundan tashqari, bilimning ba'zi sohalarida deviatsiyani o`rganuvchi maxsus bo`limlar ajratiladi. Sotsiologiyada, masalan, bu tadqiqot predmeti ijtimoiy og`ishganlik hisoblanuvchi Deviantologiya.

Muammoning qandaydir bitta aspektiga, ayniqsa, e'tiborni qaratgan alohida yondoshuvlar qonunan bir birini to'ldiradi. Masalan, klinik yondoshuv Deviantlikning psixopatologik tabiatini o`rganadi, sotsiologik nazariyalar uning ijtimoiy determinantlarini ko`rib chiqadi, psixologik kontsepsiylar ushbu ko`rinishning ichki shaxsiy mexanizmlariga asosiy urg'u beradilar.

Turli nazariyalar sharhi, bizning nazarimizda, u haqidagi zamonaviy bilimlar olamida o`rganilayotgan ko`rinishning nisbatan yaxlit tasvirini olish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu bo`limda og`ishgan xulq tabiatiga tarixiy va zamonaviy ilmiy nazarlar ko`rib chiqiladi: uning determinatsiyasi, shakllanish qonunchilik, ishslash mexanizmlari.

Og`ishgan xulq determinatsiyasi haqidagi masala alohida diqqatga sazovor. Determinatsiya tushunchasi ostida og`ishgan xulqni chaqiruvchi, qo`zg'atuvchi yoki qo'llovchi omillar yig'indisi tushuniladi. Determinatsiyalovchi omillar shaxs shu tizimostining biri hisoblanadigan ijtimoiy tashkilotlarning turlicha darajalarida amal

qiladi. “Jamiyat-shaxs” tizimi bir vaqtning o‘zida bir necha darajada ishlaydi: geofizik, makrojamoatchilik, ijtimoiy-guruhli, mikroiijtimoiy, individual-shaxsiy, psixofiziologik.

Ajratilgan darajalarga muvofiq shaxs og`ishgan xulqini determinatsiyalovchi quyidagi omillar guruhini aniqlash mumkin:

- jismoniy muhitning tashqi sharoitlari;
- tashqi ijtimoiy sharoitlar;
- ichki nasliy-biologik va konstitutsional zamini;
- og`ishgan xulqning ichki shaxsiy sabablari va mexanizmlari.

Ushbu bo`lim materiali – Deviantlikning tashqi ijtimoiy omillariga diqqatni uning ichki, konstitutsional-biologik sharoitlari haqidagi ilmiy tasavvur orqali jamlovchi sotsiologik nazariyalardan tortib, og`ishgan xulqning individual-shaxsiy mexanizmlarini ohib beruvchi psixologik kontsepsiyalargacha tashqi sharoitdan ko`rinishning ichki sabablariga o`tish tamoyillari bilan tuzilgan.

Tarbiyasi og`ir o‘quvchilar bilan individual ishlash ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bunday o‘quvchilarning xulq-atvori, shaxsiyati va psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganishni talab qiladi. Ushbu o‘quvchilar odatda dars jarayonida intizom muammolarini keltirib chiqarishi, o‘qituvchilar bilan ziddiyatga borishi yoki tengdoshlari bilan mojarolarga duch kelishi mumkin. Bunday holatlar o‘quvchilarning psixologik holati, oilaviy tarbiyasi, ijtimoiy muhit va shaxsiy tajribalariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tarbiyasi og`ir o‘quvchilar bilan ishlashda standart pedagogik yondashuvlar yetarli bo‘lmaydi, ularga individual yondashuv qo‘llash zarur bo‘ladi. O‘quvchining shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixokorreksion usullar, motivatsion strategiyalar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Pedagoglar va psixologlar tomonidan maxsus diagnostika usullari yordamida o‘quvchining tarbiyasi bilan bog‘liq asosiy muammolar aniqlanib, ularga mos yondashuv ishlab chiqiladi. Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik treninglar, reabilitatsion dasturlar va moslashtiruvchi pedagogik metodlardan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin.

O‘quvchilar bilan individual ishlash jarayonida o‘qituvchi va psixolog o‘zaro hamkorlikda ishlashi lozim, chunki bu usul nafaqat o‘quvchining o‘zini tutishiga, balki uning ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik qilish, ularga psixologik maslahatlar berish va farzandlari bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar taqdim etish tarbiyasi og`ir o‘quvchilarning xulqatvorini ijobjiy tomonga o‘zgartirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, ijtimoiy muhitga moslashishi yaxshilanadi hamda akademik natijalari oshishiga zamin yaratiladi.

Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan individual ishlash jarayonida ularga nisbatan sabr-toqatli, tushunish va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan munosabat yuritish muhim ahamiyatga ega. Bunday o‘quvchilarga shaxsiy yondashuv qo‘llash uchun ularning psixologik va pedagogik xarakteristikalarini chuqur o‘rganish lozim.

O‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolarini tahlil qilish orqali ular bilan samarali aloqa o‘rnatish, o‘quv motivatsiyasini oshirish va ijtimoiy moslashuv darajasini yaxshilashga erishish mumkin. Shu bilan birga, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun interaktiv ta’lim metodlari, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ularning o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhimdir. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantirish uchun turli ijodiy mashg‘ulotlar, guruhiy tadbirlar, sport va san’at yo‘nalishlaridagi faoliyatlarga jalg qilish ijobiy natija beradi. Shu bilan birga, pedagog va psixologlar tomonidan bunday o‘quvchilar uchun maxsus reabilitatsion dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Ushbu dasturlar orqali ularning stress bilan kurashish qobiliyati rivojlantiriladi, kommunikativ ko‘nikmalari mustahkamlanadi va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati shakllanadi.

Shuningdek, o‘qituvchi va psixologlar tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda oilaviy tarbiyaning o‘rni va ahamiyatini inobatga olishi lozim. Ota-onalar bilan hamkorlik qilish orqali farzandining o‘ziga xos xulq-atvori va tarbiyaviy ehtiyojlari haqida batafsil ma’lumot olish, ularga pedagogik va psixologik maslahatlar berish mumkin. Ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalg qilish va ular bilan muntazam muloqot o‘quvchining xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda kompleks yondashuv, pedagogik va psixologik metodlarning uyg‘unlashuvi hamda individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o‘quvchilar bilan ishlash faqatgina intizomiy chorallarga asoslangan bo‘lmasligi, balki ularning ijtimoiy-emosional rivojlanishiga qaratilgan tizimli yondashuvni o‘z ichiga olishi lozim.

Ularning qobiliyat va iste’dodlarini aniqlash, ijtimoiy va psixologik muammolarini hal etish, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va jamiyatga moslashishiga yordam berish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda sabr, tushunish va doimiy psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosiy omillar sifatida qaralishi lozim. Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda samaradorlikni oshirish uchun ularning shaxsiyati va xulq-atvorini tushunishga yo‘naltirilgan diagnostik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchining muammolarini aniqlash va ularga individual reja asosida yondashish orqali ularning ijtimoiy va akademik rivojlanishiga ko‘mak berish mumkin. Bunda o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib, ularga yoqadigan mashg‘ulotlar orqali

motivatsiyani oshirish, intizom muammolarining oldini olish va ta'lim jarayoniga jalb qilish samarali usul hisoblanadi. Shu bilan birga, o'qituvchi va psixolog o'quvchilar bilan muntazam suhbatlar o'tkazib, ularning muammolarini tinglash va tushunish orqali ishonchli muhit yaratishi kerak. O'quvchiga qo'yilgan talablar uning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos kelishi lozim, chunki haddan tashqari qattiq intizom choralar yoki yuqori talablar aksincha, o'quvchining qiziqishini yo'qotishiga sabab bo'lishi mumkin. Ularni rag'batlantirish, kichik yutuqlarini e'tirof etish va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish tarbiyasi og'ir o'quvchilarning ijobjiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu sababli, bunday o'quvchilar bilan ishlashda pedagoglarning kasbiy mahorati, sabr-toqati va individual yondashuv uslublari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boymurodov, N. (2008). Amaliy psixologiya. Yangi asr avlodni.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. A.Qodiriy nomli Jizzax davlat Pedagogika Universiteti katta o'qituvchisi D.Rasulova "Xulqi o'g'ishgambolalar psixologiyasi" O'quv uslubiy qo'llanma 2019-yil
4. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41-46.
5. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
6. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272274.
7. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.
8. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(3), 2677-2684.